INTERNATIONAL JOURNAL OF SCIENTIFIC RESEARCHERS

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

# GOSPITAL TA'LIMDAGI O'QUVCHILARGA ONA TILI FANINI O'QITISHDA QO'LLANILADIGAN METODLAR

**Akbarova Shohida Toxirjonovna**
Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi
"Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi Farg'ona viloyati filiali
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

**Annotatsiya:**Ushbu maqolada yurtimizdagi gospital ta'lim muassasasi va unda ona tili fanini o'qitishda foydalaniladigan metodlar, bemor bolalarni hayotga, bilim olishga, ona tili fanini chuqurroq egallashga, dunyoqarashlarini o'stirish va keng fikr yuritishga yordam berish borasida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:**Ta'lim, jamiyat, gospital, ona tili, pedagog, avlod, bolalar, ilm, tarbiya, metod, usul.

Ta'lim olish huquqi shaxsning asosiy huquqlaridan biridir. Ayni vaqtda O'zbekiston Respublikasida ta'lim jamiyatni ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy va madaniy rivojlantirishning ustuvor sohasi sifatida e'tirof etiladi. O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatini umuminsoniy qadriyatlarni, xalqning tarixiy tajribasini, madaniy va fan bobidagi an'analarini, jamiyatning istiqboldagi rivojini hisobga olgan holda yurgizadi. Ta'lim ilm berish va tarbiyani o'zichiga oladi,u respublikaning zakovat va ilm borasidagi kuch-quvvatini rivojlantirish, jamiyat, oila oldidagi o'z mas'uliyatini anglaydigan har jihatdan barkamol yoshlarni shakllantirish maqsadini ko'zlaydi. Shu boisdan ham mamlakatdagi barcha kelajak avlod vakillarining ta'lim olish huquqi davlat tomonidan muhofaza etiladi. Bundan tashqari, umumta'lim olish yoshidagi har qaysiki bolalarning ijtimoiy kelib chiqishi-yu ayni vaqtdagi ijtimoiy holatidan qat'iy nazar ta'lim olishlari uchun shart-sharoitlar ham yaratib berilmoqda. Buning isbotini "Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo'lgan bolalar uchun maktabgacha ta'lim va tarbiya hamda umumiy o'rta ta'lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi hukumat qarori hamda uning ijrosi timsolida ko'rish mumkin.

O'zbekiston hududida hozirgi kunda yagona bo'lgan — "Mehrli maktab" davlat ta'lim muassasasi 2022-yil 16-maydan e'tiboran faoliyat olib bormoqda. Ushbu maktab Bolalar gematologiyasi, onkologiyasi va klinik immunologiyasi markazida davolanayotgan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarni qamrab oladi.

"Mehrli maktab"da bolalarning ta'lim-tarbiya olishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan. Ular shifokor xulosasiga muvofiq tasdiqlangan dars jadvali asosida mashg'ulotlarda ishtirok etadilar. Darslar bolalarning umumiy ahvolidan kelib chiqqan holda 30 daqiqagacha davom etadi. "Mehrli maktab"da baholash jarayoni ham mavjud. "Mehrli maktab"ga darslariga qatnashish albatta shifokor ko'rsatmasi asosida bo'ladi. Shifokor bolaga darslarda ishtirok etishiga ruxsat bermagan taqdirda, pedagog zamonaviy texnologiyalari bilan birgalikda bola huzuriga o'zi tashrif buyuradi va muolaja paytida ham darslar davom ettiriladi. Bundan tashqari, bolalar dars mashg'ulotlarida ishtirok etishlari bilan birgalikda yangi do'stlar orttirishlari va fikrlar almashishlari mumkin bo'ladi. Eng asosiysi, bolalarda nutqiy rivojlanish va jamiyatga to'laqonli qaytish hissi ustun bo'ladi.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

O‘zbekistonda gospital ta’lim deganda shifoxonada uzoq muddat davolanayotgan va tibbiy sabablarga ko‘ra umumta’lim maktablarga bora olmaydigan bolalarga ta’lim-tarbiya berish tushuniladi. Gospital ta’lim bolalarga tibbiy yordam olish va davolanish vaqtida o‘qishni davom ettirishni ta’minlashga qaratilgan.

O‘zbekistonda gospital ta’limga oid ba’zi muhim fikrlar:

1. **Maqsad**: gospital ta’limning asosiy maqsadi – uzoq vaqt davomida shifoxonada davolanayotgan bolalarning ta’limni davom ettirishini ta’minlash va ularning o‘qishidagi har qanday buzilishlarni minimallashtirishdir.

2. **Muvofiqlik**: Gospital ta’limda tibbiy sharoit yoki shifoxonada davolanayotganligi sababli umumta’lim maktablarga bora olmaydigan maktab va maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatiladi.

3. **O‘quv rejasi:** Gospital ta’lim dasturlari milliy ta’lim standartlariga mos keladigan o‘quv dasturini taqdim etishga qaratilgan. Pedagoglar o‘quvchilarga matematika, til, tabiatshunoslik va ijtimoiy fanlar kabi asosiy fanlardan dars o‘tishadi. O‘quv rejasi har bir o‘quvchining individual ehtiyojlarini qondirish uchun moslashtirilgan va umumta’lim maktabi ta’limiga silliq o‘tishni ta’minlash uchun mo‘ljallangan.

4. **Pedagoglar**: Gospital ta’lim o‘qituvchilari tibbiy muassasalarda o‘quvchilar bilan ishlash uchun maxsus tayyorgarlik bilan darsga kirishlari kerak. Ular o‘quvchining sog‘lig‘i va qobiliyatlarini hisobga olgan holda munosabatda bo‘lishadi. O‘qituvchilar ta’lim jarayonining uzluksizligini ta’minlash maqsadida doimiy ravishda o‘quvchilarning yashash joyidagi umumta’lim maktablari bilan hamkorlik qiladilar.

5. **Muvofiqlashtirish**: Gospital ta’lim dasturlari shifoxonalar, ta’lim tashkilotlari va umumta’lim maktablar o‘rtasida yaqinlikni muvofiqlashtirishni o‘z ichiga oladi. Bu muvofiqlashtirish o‘quvchining ta’limga bo‘lgan ehtiyojlari qondirilishini va o‘quvchi umumta’lim maktabiga qaytganida muammosiz o‘tishni ta’minlaydi.

O‘zbekistonda gospital ta’lim tibbiy sabablarga ko‘ra umumta’lim maktabiga bora olmaydigan bolalarning ta’lim rivojlanishi va farovonligini qo‘llab-quvvatlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Bu bolalarga kerakli ta’lim yordamini olishini ta’minlaydi, ularga o‘qishni davom ettirish va o‘qishdagi bo‘shliqlarni kamaytirish imkonini beradi.

Gospital pedagogika - uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan va sog‘lig‘i sababli umumta’lim muassasalariga bora olmaydigan bolalar uchun ta’limni tashkil etish bilan bog‘liq pedagogika bo‘limi hisoblanadi.

Uzoq muddatli davolanishda bo‘lgan bolalarga nisbatan ta’lim-tarbiya xizmatlari ko‘rsatish pedagogik xodim - bolalar bilan ishlash bo‘yicha maxsus tayyorgarlikdan o‘tgan pedagogik ma‘lumotga ega mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Pedagogik xodim o‘z ishida umumta’lim maktablarida qo‘llaniladigan an’anaviy usullardan sezilarli darajada farq qiladigan usul va vositalardan foydalanadi. Har bir fan yuzasidan ta’lim beradigan o‘qituvchilardan bu jarayonda o‘ta ehtiyotkorlik hamda yuqori tajriba talab etiladi.

Jumladan, ona tili va adabiyot fanini o‘qitishda “Mehrli maktab” davlat ta’lim muassasasida ta’lim olayotgan bolalarni fanga nisbatan qiziqishlarining mavjud holatini kengroq o‘rganish, buning natijasida ularni fanning ichki dunyosiga olib kirish, qiziqishlarini yanada

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

orttirish uchun turli zamonaviy va gospital ta'lim o'quv dasturlariga mos innovatsion texnologiyalarga murojaat etish maqsadga muvofiq.

Ona tili fanini o'qitishda, asosiysi, muhimlik, amaliylik, ko'rgazmali ishlar yordamida o'quvchining qo'shimcha ma'lumot olishini ta'minlash, muloqot qobiliyatini rivojlantirish va til sahifasini mustahkamlashga qaratilgan bo'ladi.

Ona tili fani o'qituvchisi, o'quvchini mustaqil fikrlashga, mulohazalarni og'zaki va yozma ravishda to'liq bayon qilishga o'rgatadi. O'quvchining savodxonlik darajasi hamda uning ijtimoiy hayotda tutgan o'rni ona tilidan hosil qilingan bilim va malakalari asosiga quriladi. Insonda har bir narsaga nisbatan o'z munosabatini bildirish imkoniyati bor va bu imkoniyat har gal tilning muayyan shakllari orqali yuzaga chiqariladi.

Gospital ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayonida psixologik jarayonlar ham muhim rol o'ynaydi. O'qituvchi pedagogik mahorat bilan birga psixologik bilimga ham ega bo'lmog'i lozim. Bola psixologiyasini yaxshi tushungan o'qituvchi haqiqiy pedagog bo'la oladi. Har bir darslarda psixologik hamda innovatsion metodlarga vaqt ajratish darsning qiziqarli bo'lishiga, o'quvchining e'tiborini o'ziga tortishga, mavzuni yaxshi tushinishga, o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatini oshirishga juda katta yordam beradi va shu bilan birga o'quvchida qachon yana shu darsga kirar ekanmiz degan fikrni paydo bo'lishiga sabab bo'ladi. Quyida dars davomida qo'llash mumkin bo'lgan bir nechta zamonaviy metodlar haqida to'xtalib o'tamiz.

"Mehrli maktab"da ona tili fanini o'qitishda "Atamalar", "Kim bu", "So'zlar zanjiri" "Davom ettiring", "Dadil bo'l o'rtoq", "Musiqa matnini top", "Cho'ntak", "Adashgan harflar", "Lisoniy qolip", "Besh pog'ona", "Tushunchalar", "Ha, yo'q", metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi. Bu metodlar orqali o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini orttirib, fan mavzusini chuqurroq o'zlashtirib olishlariga yordam beradi.

**"Cho'ntak" metodi.** Bu o'yin metodidan ona tili fani darslarida, fonetika bo'limini o'rganishda, dam olish daqiqalarida foydalanish mumkin. Bu metodning afzalligi shundaki, o'quvchi va o'qituvchidan ortiqcha jihoz talab qilinmaydi. O'quvchilar sonini, yoshini ahamiyati yo'q. Sinf o'quvchilarning yoshi turlicha bo'lganda ham gibrid usulida yoki individual usulida ham foydalansa maqsadga muvofiq.

O'quvchi laminantlangan harflardan bittasini tanlab oladi. Avval, shu harfga ta'rif beradi. Masalan: **L** harfi – jarangli, til oldi undosh tovushi; **K** harfi – jarangsiz til orqa undosh tovushi.

O'yinning keyingi sharti shu harf bilan boshlanuvchi cho'ntakka solsa bo'ladigan beshta so'zni bir daqiqa ichida aytishi yoki yozishi kerak. Masalan: Lak, loviya, lampochka, lola, limon; kalit, kapalak, kuldon, kulcha, kaklik, kitob.

Bu o'yin metodi orqali o'quvchilarning diqqatini jamlash, tez fikrlash, fan mavzusiga qiziqishlarini orttirish mumkin.

**"Begona so'z" o'yin metodi.** Bunda beshta so'z bir tanish hikoyadan yoki ertakdan olinib, bitta so'z begona asardan olinadi. Masalan: "O'gay", "Erka", "Mehnatsevar", "Sehrli sandiq", "Ajdar" bitta begona so'z "Kulol" so'zi.

Yuqoridagi begona so'zdan ertakni davom ettirishadi. O'quvchi dasturda belgilangan bilimlarni kamida davlat ta'lim standarti talablari darajasida o'zlashtirishi kerak. O'qituvchi bu jarayonni bolaga zavq bag'ishlovchi mana shunday o'yinlar asosida tashkil eta olsa, bilim olish

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

jarayoni shodlik va zavq manbaiga aylanadi va shu bilan birga o‘quvchiga erkinlikni his etish imkonini beradi.

**“Besh pog‘ona” metodi.** Bu metodni yakka tartibda ta’lim oluvchi o‘quvchilar bilan ham guruh darslarida ham qo‘llash birdek samara beradi. Ona tili fanida bo‘g‘in yoki boshqa mavzular o‘tilganda darsni mustahkamlash qismida foydalaniladi.

1-pog‘onada o‘quvchilar faqat bir bo‘g‘inli so‘zlardan beshta misol yoziladi (Go‘sht, osh, yosh, yoz, so‘z).

2-pog‘onada ikki bo‘g‘inli so‘zlarga beshta misol yoziladi (sa-na, o-ta, ol-ma, ki-tob, ol-tin).

3-pog‘onada uch bo‘g‘inli, 4-pog‘onada to‘rt bo‘g‘inli, 5-pog‘onada besh bo‘g‘inli so‘zlarga misollar yozishadi.

Bu o‘yin o‘quvchilarni tez fikrlashga, chaqqonlikka va yozuv savodxonligini rivojlantirishga yordam beradi.

**“Ha-yo‘q, да-нет, yes-no” metodi.** Bu o‘yin metodini xohlagan mavzuga, xohlagan fanga bog‘lab foydalanish mumkin. Yakka tartibda ham, guruh bo‘lib ishlaganda ham qulay metod hisoblanadi. Bunda mavzuga doir faktlar o‘qituvchi tomonidan aytiladi. O‘quvchilar esa faktlarni qo‘llaridagi kartochka orqali tasdiqlashadi (Ha) yoki inkor belgisini (Yo‘q) belgisini ko‘rsatishadi. O‘yin metodi orqali o‘quvchi mavzuni yanada ko‘proq eslab qoladi va ularda mustaqil fikrlash ko‘nikmalari shakllanadi. Guruhda qo‘llaganda o‘quvchilar ketma-ketlikda joylashib olishadi, So‘nggi o‘quvchi qolguncha savol aytiladi, oxirgi marraga yetib kelgan o‘quvchi g‘olib hisoblanadi. Ushbu metodni boshqa xorijiy tillarga ham bog‘lagan holda qo‘llansa, o‘quvchilarni til o‘rganishga bo‘lgan qiziqishlari ortadi.

O‘z nomidan kelib chiqqan holda, mehr va muhabbatga to‘la ta’lim berish “Mehrli maktab” tarbiyalanuvchilari, ta’lim oluvchilari uchun katta ruhiy madad hamdir. Odatda ruhiy madad berish uchun turli xil shirin so‘zlar xazinasidan, muhabbatdan darak beruvchi nazm namunalaridan foydalaniladi. Insonga kuchli motivatsiyani taqdim etuvchi so‘zlar aks etgan falsafiy asarlardan yoki shu asarlarda asosiy obrazni yoritgan qahramonlarning hayotlarini misol qilib, sinovli kunlarda irodali bo‘lishga undash, o‘zlarida kuch topa olishga ko‘maklashish “Mehrli maktab”ning asosiy maqsadlaridan biridir. Shu boisdan ham ularni ona tili va adabiyot faniga qiziqtirish juda muhim. Chunki bu fan insonning qalbidagi og‘riqlarini so‘zlar jilosidan o‘rinli foydalanish natijasida ruhan yengillikni his qilishga katta yordam beradi.

**Foydalanilgan adabiyotlar.**

1. Rafiyev A., G‘ulomova N. Ona tili va adabiyot (kasb-hunar kollejlari uchun darslik). T., “Sharq”, 2013.
2. O‘zbekiston Respublikasi Xalq ta’limi vazirining 2018-yil 27-iyuldagi 191-sonli buyrug‘iga ko’ra DTS talablari.
3. Erkaboyeva N. Q. Adabiyot fanidan savol-javoblar to‘plami. T. “Navro‘z”, 2018.
4. M.D.Pardayeva, F.Abdullayev, O.Musurmonqulova, F.Olimova. – Maktabda o‘qitish va baholash metodologiyasi.- Toshkent, 2020.

www.wordlyknowledge.uz Volume: 3, Issue: 2, 2024

e ISSN : 3030-332X IMPACT FACTOR ( Research bib ) – 7,293

5. Norova N.K. “ ONA TILI DARSLARIDA TA’LIMIY O‘YINLARNI QO‘LLASHNING AHAMIYATI. 2022.

6. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Gematologiya, onkologiya, klinik immunologiya, boshqa statsionar va uzoq muddatli ambulator davolanishda bo‘lgan bolalar uchun maktabgacha ta’lim va tarbiya hamda umumiy o‘rta ta’lim berish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2022-yil 5-maydagi 234-son qarori.